



# International Journal for Innovative Engineering and Management Research

A Peer Reviewed Open Access International Journal

www.ijiemr.org

## COPY RIGHT



**2022 IJIEMR.** Personal use of this material is permitted. Permission from IJIEMR must be obtained for all other uses, in any current or future media, including reprinting/republishing this material for advertising or promotional purposes, creating new collective works, for resale or redistribution to servers or lists, or reuse of any copyrighted component of this work in other works. No Reprint should be done to this paper, all copy right is authenticated to Paper Authors

IJIEMR Transactions, online available on 15th Jan 2022. Link

<http://www.ijiemr.org/downloads.php?vol=Volume-11&issue=ISSUE-01>

**DOI: 10.48047/IJIEMR/V11/I01/09**

Title O'ZBEK MUSIQASINING RIVOJLANISH TARIXI

Volume 11, Issue 01, Pages: 51-54

Paper Authors

Farg'ona Davlat Universiteti, San'atshunoslik fakulteti, Musiqiy ta'lif  
kafedrasи o'qituvchisi Ataboyeva Shoxidaxon ,Musiqa ta'lifi 3 – kurs talabalari  
Abduqodirova Donoxon Abdulkakim qizi, Xasanova Ma'muraxon Ahmadjon qizi,  
Ismoilova Mohigul Akramjon qizi.



USE THIS BARCODE TO ACCESS YOUR ONLINE PAPER

To Secure Your Paper As Per **UGC Guidelines** We Are Providing A Electronic Bar Code



## O'ZBEK MUSIQASINING RIVOJLANISH TARIXI.

Farg'ona Davlat Universiteti

San'atshunoslik fakulteti, Musiqiy ta'lif  
kafedrasi o'qituvchisi Ataboyeva Shoxidaxon ,  
Musiqa ta'limi 3 – kurs talabalari  
Abduqodirova Donoxon Abdulxakim qizi,  
Xasanova Ma'muraxon Ahmadjon qizi,  
Ismoilova Mohigul Akramjon qizi.

**Annotatsiya:** O'zbek xalqimning qadim – qadim zamonlardan musiqa ilmini rivojlantirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Bunga o'sha davr bastakor va sozanda xonandalari tomonidan ko'plab ishlar amalga oshirilgan. O'z zamonasining yetuk faylasuflari musiqa ilmi borasida turli risolalar chiqarishib, o'zbek musiqasini rivojlantirgan.

**Kalit so'zlar:** folklor, Avesto, cholg'u asboblar, xonanda, sozanda, yozuv, xarf, xarfiy sistema.

O'zbek xalqining og'zaki an'anada rivojlanib kelgan musiqa merosi shaklan va mazmunan badiiy mukammalligi bilan ajralib turadi. Musiqa san'atiga bevosita ma'lumotlar bir qancha manbalarda uchraydi. Hatto Avestoning miloddan avvalgi davrlarda hozirgi o'zbeklar istiqomat qilayotgan joylarda yashagan xalqlarning turli marosimlari haqida bayonlar mavjud, eng muqaddas hisoblanuvchi, Zardushtiylikdan meros qolgan "gatlar"<sup>1</sup> ya'ni naqllar zamonaviy tadqiqotlarda – qo'shiq aytimlar deb nomlanadi.

O'zbekistonda hamda qo'shni davlatlarda olib borilayotgan arxeologik qazilmalar musiqaga oid aniq ashyoviy dalillar bermoqda. Ayrитом piramonidagi sozandalar, Panjikent devoriy rasmlaridagi sahnalar. Afroosiyob, Dalvarzintepa va boshqa xududlardan topilgan yodgorliklar shular jumlasidandir. Miloddan avvalgi mahalliy musiqiy hayot yunon tarixchilari Gerodot, Ktesiy, Ksenofont, Strabon, Ptolemy, Arrianlarning asarlarida ham yoritilgan. Qulدورлик va ilk feodal tuzumiga asoslangan qadimgi dunyo davlatlari – Misr, Shumer, Bobil, O'rta Osiyo (taxminan miloddan avvalgi 1-ming yillik davri), Xitoy, Xindiston, Yunoniston, Rim

<sup>1</sup> "gatlar" Avestoda qadimda musiqani shunday atagan.



# International Journal for Innovative Engineering and Management Research

A Peer Reviewed Open Access International Journal

[www.ijiemr.org](http://www.ijiemr.org)

madaniyatlarida kasbiy musiqachilar maktablari shakllangan. Ular maxsus bastakorlik, musiqa ilmi kabi fandagi bilim va qoidalarga asoslanib ijod qilgan. Natijada aytim, cholg'u, raqs, doston va boshqa janrlar paydo bo'lgan.

Turli xil musiqa asboblari: chang, ud, tanbur, lira, kifara, puflama va urma asboblar takomillashtirilib, ular barqaror tovushqator va shakllarga ega bo'lgan. Musiqaning ushbu davrda asosan og'zaki an'anada rivojlanishiga qaramay, ayni vaqtida, uning ilk yozuv ieroglif, xarfiy va boshqa tizimi ixtiro etilgan, musiqa nafisasi va nazariyasi ta'limotlari shakllangan: Bulardan: Xitoyda – Konfutsiy, Yunonistonda – Pifagor, Geraklit, Demokrit, Aristotel, Platon, Aristoksen va boshqalar, O'rta Osiyoda – Borbad kabi faylasuflar o'z musiqaga oid ta'limotlarini yaratgan.

Turli marosim va mehnat mavzulari uzoq o'tmishdan bastakorlar ijodiyotida ustuvor o'ren egallab kelgan. Markaziy Osiyolik mashxur xonanda, sozanda va bastakor Borbad Marvaziy (taxminan 585-638) ijodi bunga misol bo'la oladi. Zero, u o'z faoliyatini dastlab xalq orasida o'tkazib, muayyan urfodatlar, ba'zi rivoyatlar, xatto yaxlit yil taqvimi 360 kun, xafta va oylar tizimi bilan bog'liq mavzularini o'z asarlarida aks ettirgan. Eron shoxi Xusrav II Parviz saroyida xizmat

qilgan yillari esa, bastakorlik tarixidagi ilk ko'p qismli «Xusravoniy»<sup>2</sup> turkumini yaratdi.

Musiqa ijodiyotining ilk ko'rinishlari ham ibtidoiy jamoa davrida, asosan, ovchilik va terimchilik bilan kun kechirgan odamlarning mehnat va marosimlari jarayonida yuzaga keladi. Ommaviy o'yinlarning urg'u-zarbalari, jodusun ohang iboralari, hayvonlar ovoziga taqlid sadolari, signal darak beruvchi qichqiriq-baqiriqlardan astasekin aynan musiqa xususiyatlariga ega bo'lgan ifodaviy vositalar qaror topadi. Ular, asosan, odam tanasi qo'l-oyoq harakatlarini aks ettiruvchi ritmik tuzilmalar, usullar, shuningdek, odam ovozi, nutq intonatsiyasi ta'sirchanligiga asoslangan ohang iboralari tarzida rivoj topadi. Shu bilan birga tosh, suyak, yog'och, chig'anoq, shox kabi tabiat narsalari ilk musiqa cholg'ulari, «musiqa qurollari» sifatida qo'llanila boshlaydi. Bulardan hozirgacha saqlanib qolgan turli shiqildoq, zuvilcha kabi idiofnlar, puflama hushtak, burg'u, sibizg'a, urma qayroq, dovul cholg'ularni ko'rsatish mumkin.

Dehqonchilik va chorvachilikka o'tish davrida oldin muayyan tartib hamda aniq balandlikka ega

<sup>2</sup> «Xusravoniy» ni Eron shohi Parviz uchun yozilgan turkum asar.



# International Journal for Innovative Engineering and Management Research

A Peer Reviewed Open Access International Journal

[www.ijiemr.org](http://www.ijiemr.org)

bo'limgan tovush nisbatlari asosida tovushqator, pardal tuzilmalari, o'lchov va vaznning ilk shakllari yuzaga keladi. Mazkur jarayonda oddiy xususan, mavsum marosim qo'shiqlar, muayyan mavzuli cholg'u kuylar qaror topadi. Ibtidoiy san'atda paydo bo'lgan o'yin usullari, jodu aytimlari, tovushli signallardan tortib xalq ashula va cholg'u kuylargacha kabi shakllardan iborat. Boshqa musiqa turlaridan, asosan, turmush jarayoni urf-odat, marosim, bayram va boshqalarga bevosita bog'langanligi bilan ajralib turadi. Aksariyat musiqa folklor namunalari sof estetik hodisalar ma'nosida emas, kundalik hayot, maishiy, mehnat, marosim va boshqalar vazifalarini bajaradigan badiiy shakllar sifatida qaror topadi. Ko'pgina xalq musiqasi namunalari sinkretik shakllar bo'lib, bularda kuyohanglar so'z qo'shiq, terma, lapar, raqs o'yin-raqs kuylari, tomosha, musiqiy tomosha bilan uyg'unlashgan holda yuzaga keladi.

Muayyan badiiy an'ana va shakl andozalariga asoslangan xalq musiqa namunalari turli davr va sharoitda masalan, tinglovchilar yoki ijrochilar tarkibi, ijro etish vaqt, joyi va muhitiga qarab o'zgaradi. Shuning uchun har bir musiqiy folklor namunasining bir necha varianti mavjud bo'ladi. Xalq musiqasida mintaqaviy, milliy va mahalliy uslublar ajratiladi, masalan, o'zbek

xalq musiqasida Buxoro-Samarqand musiqa uslubi, Surxondaryo-Qashqadaryo mus iqa uslubi. Musiqiy folklor namunalari badiiy mazmun jihatidan epik terma, musiqiy ertak, maddohlik, qissaxonlik, afsona kuylari kabi, dramatik musiqiy-tomosha va lirik qo'shiq, lapar, yalla, madhiya turlarga, ijro etish sharoitiga qarab - maishiy, marosim qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari turlarga ajratiladi. Xalq musiqasi namunalari xalq, omma badiiy ongingin mahsuli sifatida hayot kechirib, yakka holda havaskor xonanda, sozanda, do'mbrakash, dutorchi tomonidan, shuningdek, ansambl yoki jamoaviy tarzda ijro etiladi. Xalq musiqasi milliy musiqa uslubining asosi, bastakor va kompozitorlar ijodi, ommabop musiqaning muhim manbaidir. Musiqiy foylklor, o'z navbatida, professional musiqa san'ati bilan o'zaro chambarchas aloqada rivojlanadi. Hozirgi davrda xalq musiqa namunalarining qadimiylari va o'zgartirilgani, shuningdek, ular asosida yangidan yaratilganlari mavjud. Halqimizning serqatlamus ikeri merosi hozirgi o'zbek musiqashunosligida oddiy va murakkablik nuqtai nazaridan asosan ikki turga bo'linib, musiqa folklori mehnat, marosim kuy va qo'shiqlari, shaklan oddiy ashulalar va professional-kasbiy mumtoz musiqa doston, katta ashula, murakkab shaklli

ashula va cholg'u kuylar, maqomlarga taqsimlanadi. Vaholanki, so'nggi turdag'i asarlar yaqin-yaqin yillargacha Abdurauf Fitrat, Abdulhaqid Cho'lpon, G'ulom Zafariy va boshqalar tomonidan o'zbek klassik musiqasi deb yuritilgan.

Folklor, mumtoz musiqada keng tarqalgan bir qancha kuy va ashula yo'llari bir vohadan ikkinchisiga ko'chib, mahalliy musiqa dialektlariga payvandlanib ketishi natijasida muayyan asarlarni vohabop "Farg'ona Tanavori", "Samarqand Ushshog'i", "Buxoro Irog'i" kabi ko'rinishlari yuzaga kelgan. Natijada hozirgi kunga kelib, an'anaviy o'zbek ijrochiligi va ijodchiligidagi Farg'ona-Toshkent, Buxoro-Samarqand, Surxondaryo-Qashqadaryo va Xorazm mintaqalariga xos lokal musiqiy-uslubiy xususiyatlar namoyon bo'lmoqda.<sup>3</sup>

Shu kabi musiqiy uslublar bizning musiqamizda muhim o'rinni olgan. Va yana shunga o'xshash ko'plab manbalar hozirda yosh o'sib kelayotgan avlodlarga musiqa ilmini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Farg'ona davlat universiteti san'atshunoslik fakulteti "Musiqa ta'limi kafedrasи o'qituvchisi Ulug'bek Rahmonov "O'zbek musiqa adabiyoti" fanidan o'quv qo'llanma.
2. Begmatov Soibjon "Xofizlik san'ati" o'quv uslubiy qo'llanma - "Musiqa" nashriyoti – Toshkent – 2007.
3. Muhabbat Solixova "An'anaviy xonandalik ansamбли" – Toshkent – 2010.
4. Bahrom Madrimov "O'zbek musiqa tarixi" – Toshkent – 2015.
5. SOIBJON BEGMATOV "BASTAKORLAR IJODI" – Toshkent – "Niso Poligraf" – 2017.
6. N. Yuldasheva, N. Raxmatova "O'zbek musiqa adabiyoti" – Toshkent - «iqtisod -moliya» - 2016.
7. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" – Davlat milliy nashriyoti – Toshkent – 2003.

<sup>3</sup> Bu davrda Farg'ona – Toshkent maqom yo'llari hamda boshqa maqomlar rivoj topdi.